

AMIR TEMUR DAVLATI VA QILGAN YURISHLARI

Abduqayumova Marjona Sherah qizi

*Namangan Davlat Universiteti, Jahon tillari fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish:
Ingliz tili yo'nalishi, ENG-KU-20(411)- guruhi, 4-kurs talabasi*

Abstract: *Bu maqolada Amir Temur va Temuriylar davlari tashkil topgani, davlat paydo bōlguniga qadar qancha urishlar bōlgani haqida gap ketadi. Urushlar bilan tengma teng rivojlangan fan va madaniyat, san'at ham rivojlana boshlaydi.*

Kalit sōzlar: *Amir Temur, Zafarnoma, Xoji Barlos, Oltin O'rda Tuğluq Temur, Husayinbek*

KIRISH

Amir Temur (Eski turkcha: امير تيمور – Amir Temur) (1336-yil 9- aprel – 1405-yil 18-fevral) – o'rta asrlarning buyuk turk askari va qo'mondoni, Temuriylar imperiyasi asoschisi, Oltin O'rda, Mamluq sultonligi, Dehli sultonligi, Usmonli davlati, Kavkaz va Erondagi davlatlarni barisini yengishi ortidan musulmon olamining to'la yetakchisi, yeri 4,4 mln km² ga yetishgan 14-yuzyillikning eng kuchli davlati quruvchisi, 35 yillik boshqaruvi va yurishlari chog'ida biror urushni yutqazmagan qo'shinboshi, o'tmishda ko'rilgan uchta buyuk harbiy-taktik urush va yurush qo'mondonlaridan biri, Temurlilar uyg'onish davri yaratuvchisi, ilm- fan, me'morchilik, san'at va adabiyot homiysi.(Wikipedia) Dunyoga Temuriylar davlati deb tanilgan bu davlatni juda kōplab urushlar natijasida vujudga kelgan bu davlat kuchli va uzoq davrlargacha hukmronlik qilgani kōrinib turibdi.

Asosiy qism. Bolaligidanoq, tabiatan og'ir-bosiq zexni o'tkir, shoshilmay fikrlaydigan Temurbek dastavval maktabda saboq oldi, savodini chiqardiustozlar nazoratida kamon dastasini ushlab, o'q uzish, nayza tutish, otlarni saralay olish, shikorlar uyushtirish, chavandozlik va qilichbozlik sirlarini yaxshilab o'rgandi. Sharofiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Temurbek o'n ikki yoshida tengqurlari bilan poshsho vazir o'ynashar ekan. Temurbek podsho bo'lar, qolganlarning har biriga bir mansab berilar, qamishdan yasalgan gunohkor odamni jazolab, yurt boshqarar ekanlar. O'n ikki yoshligidayok, yurt boshqarish xavosini olishga intilish kuchli bo'lgan, niyatni katta qilgan(Shukurova Gulchiroy2023).Temurbekning yoshligi Keshda kechadi.

Otasi Tarag'aybek o'z chog'ining odatlariga ko'ra Temurbekka ot minish, ov qilish, yoydan o'q otishni o'rgatuvchilarni tayin qiladi. Shu yuzdan Temurbek 18-20 yoshlarida tulporlarni yaxshi ajrata oladigan epchil otliq va qo'rqmas bahodir bo'lib ulg'ayadi. Temurbekni yoshligida madrasaga ham beradilar. Biroq Temurbekning o'qimishsiz bo'lganligi to'g'risida kunbotar ellari o'rtasida yanglish qarash ular chindek o'rnashib qolgan. Temurbek o'zi to'g'risida kitobida 21 yoshga to'lganida otasining hosili yaxshi bo'lganini, qoramol va yilqilar ko'p bolalaganini, o'zi ularni 10 tadan qilib

ishchilariga bo'lib berganini yozadi. Temurbekning yoshlik yillari to'g'risida bilgilar juda oz.

Temurbek o'z ona tilisi chig'atoy (eski turkcha yoki eski adabiy o'zbekcha)cha va forschada so'zlashgan. Temurbek arabcha so'zlasha olmagan va mo'g'ul tilida so'zlasha olganligiga tegisgli bilgilar tortishmali. Uning davrida Turk(Eski o'zbek adabiy tili)cha – so'zlashuv, qo'shin boshqarish, adabiyot va davlat ishlari tili, forsha – huquq, davlat ishlari, adabiyot va so'zlashuv tili, arabcha – din tili bo'lgan. O'rta chog' davlatlariga bo'lganidek Temurbek davlatida ham asosiy huquqiy ishlar – soliqlar yig'ish, g'aznachilik ishlari, moliya ishlari fors tilida olib borilgan. Temurbek o'z yurishlari chog'larida yilyozarlariga kunlik ishlarni Turkcha vforscha tillarda yozib borishlarini buyurgan. Temurbek o'tmishining bilingan 3 ta tamal asaridan 2 tasi, Nizomiddin Shomiy – Zafarnoma, Sharafiddin Ali Yazdiy – Zafarnoma, aynan shu kunlik qo'lyozmalarga asoslanib yozilgankitoblardir. Rasmiy yozuv turi esa arab alifbosiga asoslangan fors va turk (eski uyg'ur alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvi) yozuvlari edi.

28.03.1391 – yilda (Yazdiy,Zafarnoma,119a) Oltin O'rda xoni To'xtamishxonga qarshi yurish chog'ida Temurbek hozirgi Qozog'istondagi Ulug' tog'da askarlariga tosh keltirishlarini buyuradi va toshga o'yib bitik yozdiradi. Nizomiddin Shomiy Zafarnomasida esa

28.04.1391 da ushbu bitik bitilganligi yoziladi. Bu bitikda 3 qator arabcha va 8 qator turklarning o'z yozuvi bo'lmish eski uyg'ur yozuviga asoslangan eski adabiy o'zbekchada yozig' yozilgan.Bu bitik 1935-yil avgust oyida Ulug' tog'dan kunbotar(g'arb)da yerlashgan Qaramo'la tog' yon bag'ri oldidagi Qarsaqqay mis koni yaqinida qozoq geologi Qanish Satbaev tomonidan topilgan. Bu yuzdan Qarsaqqay bitigi ham deb ataladi. Bitik bugungi kunda SantPeterburg(RoosiyaFederatsiyasi)da Ermitaj muzeyida saqlanadi.Temurbekning siyosatga kirib kelishi 1358-yil Qazag'anbekning o'limidan so'ng Movarounnahrda boshlangan bosh-boshdoqlik chog'ida Temurbek amakisi Xoji Barlos bilan Kesh yerlarini boshqarardi. 1360-yil yanvarda Jeta (Mo'g'uliston) xoni Tug'luq Temur Movarounnahrda yurish qiladi.

Tug'luq Temur bilan kelishgan Temurbekka Keshdan Sirdaryogacha bo'lgan yerlar topshiriladi. Tug'luq Temur orqasiga qaytib ketadi. Xizr Yasuriy va Temurbek birga qo'shin yig'adilari. Xoji Barlos esa Yasuriy bilan yovlashadi va unga qarshi yurish qiladi. Tomonlar Oyqor yaqinida to'qnashishadi. Temurbek tomondushmanni yengadi. Biroq keyinroq Temurbek Yasuriy bilan yovlashadi. Kesh yaqinidagi Surushdagi urushda Temurbek dushmanni yengadi. Temurbek Termiz tomonga qarab yuradi. Ali Jarjariy bilan yovlashadi. Angor yaqinida to'qnashishadi. Temurbek dushmanni yengadi. 1361-yil martda Tug'luq Temur yana Movarounnahrda yurish qiladi. Temurbek yana Tug'luq Temur oldiga boradi va Temurbekka Kesh viloyati va 10 ming kishi topshiriladi. Movarounnahrda xon qilib Ilyosxo'ja, Tug'luq Temurning o'g'li, tayinlanadi. Tug'luq Temur o'z yurtiga qaytadi. Temurbek Husaynbek bilanuchrashadi. Alibek Joni Qurboniy bu ikki bekni tutib qamatadi. Moxonda qamoqda bir necha kun qolgan beklar Muhammadbek, Alibekning akasi, tomonidan ozod qilinadi. Temurbek

Seyiston tomon yuradi. Temurbek va Husaynbek Seyiston hokimi so'rovi va bergan so'zlariga ko'ra uning yovlariga qarshi urushishadi. Temurbek tomon dushmanni yengadi. Seyiston hokimi so'zini ustidan chiqmaydi. Temurbek Seyistondan qaytishida Sagziylar Mekrondan kelib Temurbek va yo'ldoshlariga tashlanishadi. Sagziylar qo'shini chekinadi. Temurbekning o'ng qo'li va o'ng oyog'i yaralanadi. Temurbek Garmsirga keladi va tuzaladi. Keyin Balxga qarab boradi va Abdulloh arig'i oldida, Abu Said, Mangli Bu'ga, Haydarlarga qarshi urushadi. Temurbek dushmanni yengadi. Temurbek Dashti Ko'lankaga keladi. Toshko'prik yaqinida Temurbek Yumkon o'g'li Temur, Sariq, Shingum va Tug'luq Xo'jaga qarshi urushadi. Temurbek dushmanni yengadi. 1364-yil Temurbek va Husaynbek Kesh yaqinidagi Qubba-i metinda Ilyosxo'ja bilan to'qnashishadi. Temurbek tomon dushmanni yengadi. Temurbek Qobulshoh O'g'lonni Movarounnahrğa xon qilib ko'taradi.

Ilyosxo'ja yana Movarounnahrğa yurish qiladi. 1365-yil 22- mayda Chinoz yaqinida Chirchiq daryosi bo'yida Loy jangi bo'lib o'tadi. Temurbek bo'linmasi qarshi tomon bo'linmasini yengadi. Biroq Husaynbek dushmanga qarshi turolmaydi. Bu yuzdan Temurbek Keshga qaytishga majbur bo'ladi. 1366- yil Husaynbek va Temurbek yovlashadi. Qatlashdagi urushda Temurbek tomon dushmanni yengadi. Temurbek Qarshiga qarab yuradi. Qarshi qamalida Musabekni 12000 otlig'ini 243 kishi bilan yengadi. 1367-yil Moxon yaqinidagi Bermasda Bekishohga qarshi yuradi. Temurbek dushmanni yengadi. Temurbek Husaynbek bilan yarashib Qobul tomon yuradi. Temurbek tomon Qobul sharini egallayadi. 1368-yil Temurbek Badaxshonni yag'mo etib qaytadi. Temurbek Husaynbek ila yana yovlashadi. 1370-yil Arxangdagi urushda Temurbek Husaynbekni uzil-kesil yengadi. Sayyid Baraka Temurbekka tabl va yalov taqdim etadi. Temurbek Balx tomon yuradi va Balxni qo'lga olib Suyurg'otmish O'g'lonni xon qilibko'taradi. 1370-yil Temurlilar davlati quriladi.

Anquriya(Anqara) qal'a qamallari chog'ida Boyazid Yildirim qo'shini bilan Anqara yaqiniga kelganini bilgan Temurbek Boyazitga qarshi qo'shinini tizadi. 20/07/1402 Anqara urushida Temurbek Boyazid Yildirimni uzil-kesil yengadi. Yengish yorliqlari dunyoning 4 tomoniga yuboriladi. Birin-ketin Rumdagi shaharlar egallanadi. 02/12/1402 da Amir Temur Izmir tomon yuradi. 14 kundan qisqa chog'da 7 yil Usmonli davlati ola bilmagan Izmir qal'asi olinadi. Ortidan Egridir va Nasibin qal'alari olinadi. Temurbek Rum viloyatidan chiqib Gurjiston tomon yuradi. Umuman olib bo'lmas deb atalgan Kartin qal'asini oladi. Qishni Qorabog'da o'tqazgan Temurbek 26/03/1404 da Samarqand tomon yuradi. 19/05/1404 da yana biror bora umuman olinmagan qal'a Feruzko'h qal'asi 2 kunda oladi. 1404-yil iyulda Amir Temur Samarqandga kelib tushadi. 1405-yil Xitoyni olishni istagan Temurbek Xitoy tomon yurishini boshlaydi. 14/01/1405 da O'troga kelib tushadi. Biroq yurish yakuniga yetmaydi. 1405-yil 18-fevralida ayozning ayozli kunlarida Temurbek O'trorda hayotdan ko'z yumadi. 23/02/1405 da Sohibqiron Amir Temur Samarqandda Go'ri Amirida ko'miladi.

Damashqning mashhur ustahunarmandlari mamlakatda hashamdor imoratu inshootlar bino qilganlar. Amir Temur zabt etgan mamlakatlarning bir qator shaharlari (Bag'dod, Darband, Baylaqon)ni qayta tikladi. Amir Temur Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag'dodda Madrasa, Turkistonda mashhur shayx Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara qurdirgan bo'lsada, lekin asosiy e'tiborini ona shahri Kesh va poytaxti Samarqandga qaratdi. Keshda otasining qabri ustiga maqbara, o'g'li Jahongirga maqbara bilan masjid qurdirdi. Amir Temur hukmronligining ilk davrida Kesh shahrini poytaxtga aylantirish niyatida bo'lib, uning obodonchiligiga katta ahamiyat berdi, bu yerda mashhur Oqsaroy qad ko'tardi. Amir Temur Keshni Movarounnahrning madaniy markaziga aylantirishga harakat qildi. Shu boisdan bu shahar „Qubbat ul-ilm val-adab“ unvoniga ega bo'ldi. Saltanat poytaxti Samarqand Amir Temur davrida ayniqsa gullab yashnadi. Shaharda Isfahon, Sheroz, Halab, Xorazm, Buxoro, Qarshi va Kesh sh.larining me'moru binokorlari qo'li bilan saroylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar quriladi. Shahar tashqarisida esa bog'-rog'lar va bo'stonlarbarpo etiladi (qarang Amir Temur bog'lari).

Xususan Shohizinda me'moriy majmuasiga mansub Shodimulk og'o maqbarasi, Shirinbeka og'o maqbarasi va boshqa quriladi. Shaharda Bibixonim jome masjidi, Amir Temurning qarorgohi Ko'ksaroy va Bo'stonsaroylar qad ko'taradi. Umuman olganda Samarqand sh. Amir Temur davrida o'zining qad. o'rni Afrosiyobyaan birmuncha jan.roqda butunlay yangitdan qurildi. Shahar tevaragi mustahkam qal'a devori bilan o'ralib, Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So'zangaron va Feruza kabi nomlar bilan ataluvchi 6 ta darvoza o'rnatildi. Movarounnahrning dehqonchilik vohalarida, xususan Zarafshon vodiysida o'nlab sug'orish tarmoqlari chiqarilib, dehqonchilik maydonlari kengaytirildi. Yangi qishloqlar barpo etildi. Ibn Arabshohning yozishicha, Amir Temur Samarqand atrofida qad ko'targan bir qancha yangi qishloqlarni Sharqning mashhur shaharlari Dimishq (Damashq), Misr, Bag'dod, Sultoniya va Sheroz nomlari bilan atadi. Amir Temurning fikricha, Samarqand kattaligi, go'zalligi hamda tevarak-atrofining obod etilganligi jihatidan dunyodagi eng yirik shaharlardan ham ustunroq turmog'i lozim edi. Xuroson va Movarounnahrda XVI asr boshigacha mavjud bo'lib, Shayboniyxon tomonidan tugatilgan.

Sho'rolar tuzumi davrida Amir Temur. shaxsi va faoliyatiga adolatsizlik bilan yondoshilib, bir yoqlama baho berilib kelindi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng bunday qarashlarga barham berildi. Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rni o'z joyiga qo'yila boshlandi. O'zbekistonda uning faoliyatini o'rganishga va uni ommalashtirishga keng yo'l ochildi. Uning nomi O'zbekistonda abadiylashtirildi. Ko'plab shahar vaqishloqlardagi, shohko'chalar, maydonlar, jamoa xo'jaliklari, maktablar, kinoteatrlar va boshqa uning nomi bilan ataldi. Islom Karimov tashabbusi va rahnamoligida Toshkent, Samarqand, Shahrisabz va boshqa shaharlarning markaziy maydonlarida Amir Temurga haykal o'rnatildi, Toshkentdagi Amir Temur xiyobonida Temuriylar davri muzeyi barpo etildi (1996-yilda), „Amir Temur“ ordeni ta'sis etildi (1996-yilda) va Xalqaro Amir Temur jamg'armasi tashkil qilindi (1995-yilda).

Toshkent, Samarqand va xorijiy mamlakatlarda YUNESKO rahbarligida hazrat Sohibqiron tavalludining 660 yilligi keng nishonlandi (1996-yilda). Amir Temur haqida ikki qismdan iborat badiiy film, spektakllar va she'riy hamda nasriy asarlar (Wikipedia)

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki Sohibqiron bobomiz Amir Temurning davlat boshqaruv sohasida, hamda ichki va tashqi siyosatda amalga oshirgan islohotlari oz davrida uning saltanatini yanada mustahkam bolishiga olib kelgan va hozirgi kunda kundan-kun gullabyashnab borayotgan Mustaqil O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng kolamli islohotlar ham davlat boshqaruv sohasida mamlakatimizning ertangi kuniga bolgan ishonchni yanada mustahkamlab, buyuk davlat arbobi Amir Temur tajribasini chuqur o'rganib, amalda buyuk bobolarimiz tajribasidan unumli foydalanilayotganining isboti sifatida ko'rish mumkin

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R.Shamsutdinov va boshqalar O'zbekiston tarixi. Toshkent- Akademik nashr-2019.

2. Muhummad Ali «Amir Temur solnomasi» Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona nashryoti. Toshkent-2008.

3. Shukurova Gulchiroy Akmaljon qizi BELARUS, MINSK «INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE» xalqaro elektron-onlayn konferensiyalar jurnalining 19-aprel 13-sonida "AMIR TEMUR VATEMURIYLAR" mavzusidagi maqolasi chop etildi

www.ziyonet.uz

wikipedia.org